



SEMANTICS OF PATTERNS IN CARVINGS IN TRADITIONAL APPLIED ART AND THEIR SYMBOLIC AND EXPRESSIVE FEATURES

Muzropova Guljamol Mardonovna¹

Navoi State Pedagogical Institute

KEYWORDS

19th century needlework, practical art, values, master-disciple traditions, pattern, ethnoculture, semantics, craft schools, traditions, coppersmithing, carpentry, appreciation of masters, tools and equipment, craft, symbols, painting, images of flowers, geometric shapes, carving, carving, embroidery, goldsmithing, pottery, textiles, carpet weaving, inlaying

ABSTRACT

This scientific article shows the information that will help to study the traditional applied art of the Uzbek people, to further develop the modern folk art. will be Looking at history, we see how many recognized examples of traditional applied art exist. We are witnessing the high development of folk art, the fact that artisans took a model from each other, carried out new researches in folk art and contributed to the development of folk art in all aspects.

People's traditional applied art and development, types, production technology, ethnocultural identity, color and composition styles. Semantics of patterns in carvings and their symbolic-expressive properties. In this article, the stages of development and practices of the above-mentioned traditional applied art are discussed, and the information in this field is presented.

2181-2675/© 2023 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.10080787**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Teacher of the Department of Fine Arts and Engineering Graphics, Navoi State Pedagogical Institute, Uzbekistan
(muzropovaguljamol@gmail.com)

AN`ANAVIY AMALIY SAN`ATIDA KANDAKORLIK BUYUMLARIDAGI NAQSHLAR SEMANTIKASI VA ULARNING RAMZIY-IFODAVIY XUSUSIYATLARI

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

XIX asr kandakorligi, amaliy san`at, qadriyatlar, ustoz-shogird an`analari, naqsh, etnomadaniyati, semantikasi, hunarmandchilik maktablari, an`analar, misgarlik, rixtagarlik, ustalar qadrlash, asbob-uskunalar, hunar, ramzlar, naqqoshlik, gullar tasvirlari, geometrik shakllar, ganchkorlik, kandakorlik, kashtado`zlik, zardo`zlik, kulolchilik, to`qimachilik, gilamto`qish, inkrustatsiya

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Mazkur ilmiy maqolada o`zbek xalq an`anaviy amaliy san`atni o`rganish, zamonaviy xalq amaliy san`atini yanada rivojlantirishga yordam beradigan ma`lumotlar ko`rsatilgan.. Shu bilan birga hunarmandchilik maktablari faoliyati an`analarini saqlab qolishga turtki bo`ladi. Tarixga nazar solar ekanmiz, naqadar an`anaviy amaliy san`atning tan olingan namunalari mavjudligini ko`ramiz. Xalq amaliy san`atining yo`qori darajada rivojlanganligi, hunarmand ustalarning bir biridan andoza olgan holda, xalq amaliy san`atiga yanada yangi izlanishlar olib borishganligi va amaliy san`atning har tomonlama ravnaq topishiga hissalarini qo`shishganligiga guvoh bo`lamiz.

Xalq an`anaviy amaliy san`ati va rivojlanishi, turlari, ishlab chiqarish texnologiyasi, etnomadaniy o`ziga xosligi, kolorit va kompozitsion uslublari. Kandakorlik buyumlaridagi naqshlar semantikasi va ularning ramziy-ifodaviy xususiyatlari. Ushbu maqolada yuqorida keltirilgan an`anaviy amaliy san`atning rivojlanish bosqichlari, amaliyotlari haqida fikr yuritilib, ushbu sohadagi ma`lumotlar keltirib o`tiladi.

O`rta Osiyoda naqsh solish san`ati qadimdan dunyoga mashhur bo`lib kelgan. O`tmishda ota-bobolarimiz qurgan muhtasham binolar hozirgi kungacha maftunkor jilosini yo`qotmagan. Ushbu binolardagi yuksak did bilan ishlangan naqshlar bizni hayratga solib kelmoqda. Milliy naqshlarimiz g`oyatda boy mazmunga ega. Oddiy qoshiq, lagan, quticha, sandiq, belanchak, cholg`u asboblari, uy ro`zg`or buyumlaridan tortib turar joy va jamoat binolarining devor hamda shiftlariga solingan naqshlar insonni hayratga soladi. Bu go`zal naqshlar ajoyib naqqoshlar tomonidan yaratilgan bo`lib, asrlar davomida bunyod topdi va rivojlandi, me`morchilik hamda tasviriy san`at rivoji bilan bog`langan holda takomillashib bordi.

Naqsh- arabcha tasvir, gul degan ma`noni bildiradi. U elementlari ma`lum tartibda takrorlanadigan qush, hayvon, o`simliklar, geometrik shakllar va boshqalarning ma`lum tartibda takrorlanishidan hosil qilinadigan bezak². Ganchkorlik, kandakorlik, kashtado`zlik, zardo`zlik, kulolchilik, gilam to`qish, to`qimachilik, inkrustatsiya, panjaralarda har xil yo`llar bilan naqshlar ishlanadi. Masalan ,o`yib chizish ,chok yordamida, zarb bilan, qadab va boshqa usullarda naqsh solinadi. Naqqoshlik san`ati tarixi insoniyat madaniyati bilan bir qatorda qadiymiydir. Madaniyatning rivojlanishi natijasida rassomlik va naqqoshlik ajralib

² Qosimov Q. Naqqoshlik.— Toshkent: «O`qituvchi» nashriyoti, 1982.

chiqdi va rivojlandi. Arxeologik qazilmalar shuni ko'rsatadiki, naqqoshlik jahondagi barcha xalqlarda qadimdan mavjud ekanligini.

Islom talablariga bo'ysunish oqibatida jonivorlar, parrandalar va odamlar tasvirini yo'qolib borib naqqoshlik rivoj topdi. Arab yozuvi o'zlashtirildi natijada naqshlar bilan unvonli yozuv epigrafika uslubi paydo bo'ldi. Arab yozuvi naqshlar bilan birga chizildi. Arab yozuvi ham bezak, ham duo-afsunlar vazifasini bajardi. Xullas tasviriy san'at rivojlanmaydi. Buning hisobiga xalq amaliy san'ati naqqoshlik hisobiga rivoj topdi³. Naqshlar murakkablashib bordi. Ularning yangi nusxalarida ramz tasvirlar, timsol, duo-afsunlar, tasbehlarni naqadar ko'pligini ko'rishimiz mumkin. Ramziy naqshlar dunyoda sodir bo'layotgan voqealiklar, tilaklarni aks ettirgan. Har bir chizilgan naqshda o'ziga xos ma'no bo'lgan. Chunonchi, o'simliksimon naqsh gulsapsarni olaylik, u osoyishtalik va umr uzoqlik timsoli.

Naqsh o'zbek madaniyatining hamma bosqichlarida hamroh bo'lib kelgan. Xalq naqqoshlari naqshlarni har bir detaliga alohida e'tibor berib, uning tabiiyligini yo'qotmaganlar. Har bir element ustida puxta fikr yuritganlar. Har bir naqsh negizida ma'lum negizida ma'lum ramziy ma'no singdirilgan. Buxoro naqshi hamma naqshlardan naqsh kompozitsiyalarining murakkabligi, mukammalligi va jozibadorligi bilan ajralib turadi. Buxoro naqshlarida murakkab girihlar aniq, po'xta o'lchamda ishlatilishi, o'simliksimon naqshlarning o'ziga xos san'at bilan ishlangani naqshlarning yaproq, meva, gul burglar ritmiga alohida e'tibor berilishi bilan farqlanadi.

Amaliy san'atda narsalarning nafisligiga ikki usul bilan erishiladi.

1. Shakli oddiy, jo'n buyumlarga bezak ishlab badiiy qiymati oshiriladi.
2. Shakli chiroyli qilib ishlanadi.⁴

Narsalarning tuzilishi badiiy buyumlarning mujassomotida muhim rol o'ynaydi. Xom ashyoning go'zalligi, qismlarning mutanosibligi, tuzilishining maromi buyumning ta'sirchan umumlashma qiyofasini ifodalovchi yagona vositalardir. Ta'sirchan mazmunli shakllar ko'pincha taqlidan yaratilganda mazmuni ortadi. Buyumda hosil bo'layotgan bezak uning obraz tuzilishiga ham sezilarli ta'sir etadi. Bezagi tufayli buyum amaliy san'at asariga aylanadi. Amaliy san'atda bezak yaratishda naqsh bilan tasviriy san'at (haykaltaroshlik, rangtasvir, ayrim hollarda grafika) qismlari keng qo'llaniladi. Ba'zan naqsh yoki tasvir buyumlarni shakllantiruvchi asosga aylanadi. Amaliy san'at asarining uyg'unligi avvalo badiiy buyumning badiiy va amaliy vazifasining yagonaligida, shakl va bezakning o'zaro birikuvida, tasvir va buyum tuzilishida namoyon bo'ladi. Bezakning shakl, tasvirning buyum ko'lam va xususiyati, uning amaliy va badiiy vazifasi bilan uyg'unlashtirishning zarurligi tasviriy bo'laklarni o'zgarishiga, talqinda shartlilikka va narsa qismlarini o'xshatib yaratishga olib keladi.

Kandakorlik idishlari sodda hamda sipoligi bilan farq qiladi. Chekma hamda katak

³ . Halimova D .A .Buxoro kandakorligi . Buxoro 1996

⁴ A. Hakimov " O'zbekiston amaliy san'ati haqida" Ilmiy maqola.

bilan texnik usullarni ishlash juda keng qo'llanildi. Mis buyumlarining zamini kesma uslub bilan bezatilib, sirti qalay bilan qoplangan hollardagina zaminga chekma gullar o'yilgan. Xalq amaliy san'atida kandakorlik buyumlari naqshlarining oddiyligi bilan farqlanadi. Buxoro naqshlari Toshkent naqshlariga qaraganda nafis, Qo'qon naqshlariga qaraganda yirikroqdir⁵. Buxoro mis buyumlaridagi naqshlar me'morchilik motivlariga xosdir. Aniq va yorqin tasvirlangan. Ular mehrob, koshin, g'isht, nimg'isht va boshqa naqshlarni ishlatganlar. XIX asrga kelib qadimiy yozuvlarni naqshga qo'shib bezatiladigan bo'ldi. Kandakorlar mis buyumlariga arab yozuvini o'simlik naqshiga o'xshatib zarb qildilar. Bu ham o'ziga xos nafis va badiiy ko'rinish beradi. Buxoro ustalari ichida minoqoriy nomli bo'yash uslubi mashur sirli rang emalni misga gul qilib solish mumkinligini isbotlab berdi.

Kompozitsiya (mujassamot)- lotincha kompositiol so'zidan olingan bo'lib, to'qish tuzish, bir-biriga solishtirish, naqshni g'oyasi, xarakteri va vazifasiga muvofiq uyg'un hamda mutanosib joylashtirish degan ma'noni anglatadi. Kandakorlikda kompozitsiya tuzishda simmetriyani, markaz topishni, bezaklarning davriy takrorlanishi, bezakning dinamikligini, chiroyliligini, tabiiyligi, g'oyaviyligini, ranglarning yorqinligi va uyg'unligi kabi komponentlarni hisobga olish kerak. Bulardan har birining ham o'ziga xos qonuniyatlari bor. Ustalar chizadigan nushalar o'z xususiyatiga ko'ra namoyon kitoba, ruta, turunj, va hokazo maxsus kompozitsiyalarga bo'linadi.

Komponovka ya'ni joylashtirish chizish kerak bo'lgan naqsh kompozitsiyasini karton, tikiladigan buyum yuzasiga to'g'ri joylashtirish.

Simmetriya - grekcha so'zdan olingan bo'lib, o'lchovlarning bir-biriga munosibligi tushuniladi.

Assimmetriya - kompozitsiyada simmetrik qonun qoidalarining muvozanatining buzilishidir.

Ritm- naqsh kompozitsiyasining ma'lum bir qismi ma'lum bir masofada doimiy ravishda bir tekisda takrorlanib kelishi bo'lib, naqshdagi harakatning uzluksiz va go'zal ko'rinishini ta'minlaydi.

Naqshlarning ritm asosida davomiyligi.

-Stilizatsiya- tabiatdagi o'simlik va boshqalarning tasviri, rangi, shakli va tuzilishini badiiy usulda umumlashtirishdir.

Turunj arabcha "limon" degan ma'noni bildiradi. Turunj kompozitsiyasi amalda quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi. Turunj naqsh kompozitsiyasining o'yiladigan buyum yuzasiga, mo'ljallab uning hajmi aniqlab olinadi. Shu o'lcham bo'yicha bir necha xomaki rasmlar (ya'ni, eskizlar) tayyorlanadi. Haqiqiy kattalikdagi o'lcham bo'yicha to'rt, sakkiz, o'n, o'n oltidan bir qismga, ya'ni naqshning taqsimiga turunj kompozitsiyasi bajariladi. Turunj hech qanday naqshga ulanmay muallaq turadigan kompozitsiya bo'lib, uning shakli asrlar davomida rivojlanib boyigan. Uning hozirda doyra, 5-10 raxli yulduz, oval, romb, ellips shakllari bor. Turunj nusxasi 4,8,16 ga bo'linadi. Naqqoshlar ko'pincha

⁵ Qosimov Q. Naqqoshlik.— Toshkent: «O'qituvchi» nashriyoti, 1982.

to'rtburchakli kompozistiya chetiga oddiy naqsh, ya'ni ruta ishlab o'rtasiga turunj ishlaydilar. Turunj ko'pincha devor o'rtasiga, shift markaziga, kashta, gilam markazlariga bajariladi. Usta turunj ulgisini tayyorlashda qog'ozni 4, 8 yoki 16 ga buklab bir bo'lagiga nusxa chizadi. Shu naqsh chiziqlarini ignada teshib so'ngra qog'oz yoyilsa qolgan bo'laklariga ham nusxaning o'zi takrori hosil bo'ladi. Shu naqsh shaffof qog'ozga ko'chiriladi keyin mis buyumga ko'chiriladi.

O'zbek kandakorlik buyumlaridagi naqshlarning asosiy yo'nalishlaridagi diqqatga sazovor narsa shundaki, yaxlit mavzuni tashkil etgan naqsh kompozistiyasi bosh mavzu xoshiyalar bilan chegaralangan. Hatto idish qornini bezab turgan gul ham pastdan tortilgan ensiz yo'l - belbog' yoki bo'rtiq burma bilan chegaralanadi.

- Namoyon - forsha so'z bo'lib, ko'rinish, manzara demakdir. Ruscha panno. Namoyon eng mukammallashgan yetuk naqsh kompozistiyasi hisoblanadi. Namoyon voqe'likning umumlashga va tasviriy obrazini o'zida aks etadi. Masalan, «chamanzor, bog'u-bo'stonlar, daryolar, gullar, barglar va boshqalarni shartli aks ettiradi. Hoshiya naqsh namoyonning badiiy qilib ko'rsatishda muhim rol o'ynaydi. Namoyon biror yoqqa ulanmaydigan mustaqil kompozistiyadir. Namoyon murakkab naqsh turiga kirib uning o'simliksimon, geometrik, gulli girih, ramziy va boshqa turlari mavjud. Namoyon naqsh kompozistiyalar o'ziga xos tomonlarga ega. Usta namoyonni ishlashda uning uzokdan va yaqindan ko'rinishini alohida hisobga oladi. Namoyon o'simliksimon naqshdan iborat bo'lsa, unda naqshning band va tanoblarini darajalarga bo'lib chiqadi. Gulli girihli namoyonda esa girih asosiy, o'simliksimon naqsh esa to'ldiruvchi rolini o'ynaydi. Namoyon faqat girihdan tashkil topgan bo'lsa undan ham asosiy va to'ldiruvchi girihlarga bo'lish mumkin, ya'ni yirik girihlarni ichiga mayda girihlar chiziladi. Namoyonlar simmetrik va assimetrik tuzilgan bo'ladi. XIX asrning o'rtalarida har bir vohaning namoyonlarini ko'zatsak o'ziga xos bo'lib, ular bir-biridan farq qiladi⁶. Ya'ni naqshning xarakteri ornament uslubiga ega. Masalan, Xiva naqqoshligidagi namoyonlardan bandlar bir-biri bilan spiralsimon holda ulanib ketadi. Barg gullar kam ishlatiladi. Ularning kompozistiyasi dinamik xarakterga ega. Toshkent ustalarining namoyon kompozistiyalari o'ziga xos xususiyatga o'simlik gullarining ko'pligidir. Farg'ona naqsh kompozistiyasida tabiatdagi gullar, barglar, mevalar (lola gul, atirgul, bodomgul, majnuntol, anor va boshqalar) to'g'ridan-to'g'ri tasvirlanadi. Namoyonning majnuntol namoyon, chorsi namoyon, shabaki seraftor, mehrobli namoyon va boshqa atamallari mavjud.

Munabbat - arabcha o'stirmoq degan ma'noni anglatadi. Naqshning asosi to'g'ri to'rtburchakdan tashkil topib to'rt tomonga takrorlanadigan naqsh taqsimi. Katta yuzalarni bezashda munabbatdan foydalaniladi. Ko'pincha Markaziy Osiyo naqsh kompozistiyalarida ko'p qo'llaniladi. Naqqosh munabbatni chizishdan avval to'rtidan bir bo'lagini chizib olib keyin esa axtasini (ulgisini) tayyorlaydi. Usta munabbat kompozistiyasini sathga axta

⁶ Azimov I. «O'zbekiston naqshu nigoralari.— T., G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987

yordamida tushirib, uni bo'yab, o'yib, tirnab ishlaydi. Munabbatni kompozition tuzilishiga qarab o'simliksimon, geometrik, ramziy va boshqa turlari bor. Munabbatning quyidagi atamalari mavjud: munabbati mehrob, munabbati bofta, munabbati islami, munabbati girih va boshqalar

XIX asr oxiri va XX asr boshlariga kelib, avval Farg'ona, so'ng Buxoro va Samarqand kandakorligida me'morchilik obidalarining tasvirlari paydo bo'ladi. Qo'qon ustalari esa o'sha paytlarda keng urf bo'lgan qo'yma buyumlardan ko'chirib olingan afsonaviy parrandalar obrazini kandakorlik san'atiga olib kiradilar. O'zbek naqqoshligida "islamiy" naqshi va uning turlari eng keng tarqalgan bo'lib, ular gajakdor tanoblardan, gulbarg va yaproqlar shaklidan iboratdir. Islamiy naqshi turunjlar, to'garaklar, geometrik shakllarning ichini to'ldirishda, turli xil friz va xoshiya burchaklarini bezashda ishlatiladi. "Islamiy" naqshining turlari juda ko'p. O'simlik shakli ifodalariga ham daxldor bo'lgan usullarning bir qolipga tushib qolganiga qaramay, ustalarning har bir avlodi o'simlik naqshlari va uning tabiiy shakllari go'zalligini xis etishga o'z xissasini qo'sha borar ekan, nafaqat kandakorlar, balki umuman olganda, butun xalqning go'zallikka nisbatan munosabat doirasini boyitadi. Ko'pchilik geometrik shakllar me'moriy bezaklar manbaidan kelib chiqqan bo'lishiga qaramay, kandakorlikda ko'proq yordamchi, ikkinchi darajali rolni o'ynaydi⁷. Buning sababi bor, albatta. O'tmishda naqqoshlik hunari mavjud bo'lib, bu hunar sohibi ham naqqoshlik, ham kandakorlik gul (naqsh)larini baravar mahorat bilan ijod etar edilar. Hayvonlar tasviri bir qadar badiiy uslublashtirilgan shaklda qo'llanilardi. Shunda ham hayvonni boshdan-oyoq emas, uning ma'lum bir qismini tasvirlashgan (chashmi bulbul, qo'chqorak, pushti baliq va boshqalar). Hayvonlar, parrandalar tasvirlari hamda ular badanining u yoki bu qismi sal aniq ifodalangan detallarni biz dastalarda, chumraklarda ko'rishimiz mumkin. Bularni ham rextagarning o'zi bajaradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, Xalq an'anaviy amaliy san'atini o'rganish, zamonaviy xalq amaliy san'atini yanada rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga hunarmandchilik maktablari faoliyati an'analarini saqlab qolishga turtki bo'ladi. Tarixga nazar solar ekanmiz, naqadar o'zbek xalq amaliy san'atining tan olingan namunalari mavjudligini ko'ramiz. Xalq amaliy san'atining yo'qori darajada rivojlanganligi, hunarmand ustalarning bir biridan andoza olgan holda, xalq amaliy san'atiga yanada yangi izlanishlar olib borishganligi va amaliy san'atning har tomonlama ravnaq topishiga hissalarini qo'shishganligiga guvoh bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Qosimov Q. Naqqoshlik. — Toshkent: «O'qituvchi» nashriyoti, 1982.
2. Halimova D.A. Buxoro kandakorligi. Buxoro 1996
3. A. Hakimov "O'zbekiston amaliy san'ati haqida" Ilmiy maqola.

⁷ Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Очерки искусства Средней Азии, древность и средневековье.— М., изд-ва Искусство. 1982. — С. 16.

4. Azimov I. «O'zbekiston naqshu nigoralari.— T., G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987
5. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Очерки искусства Средней Азии, древность и средневековье.— М., изд-ва Искусство. 1982. – С. 16.
6. Muzropova G.M. “Amaliy san'atda naqshlar semantikasi”.Zamonaviy san'at. Hunardan falsafagacha. Ego IV. Ilmiy konfrensiya.
7. Muzropova G. M. “Buxoro amaliy san'atining pedagogik ahamiyati”.O'zbekistonning umidli yoshlari. Konfrensiyasi. 2021. 31b.
8. Muzropova G.M. “Amaliy san'atning pedagogik ahamiyati”. Dopolnitel'noe professional'noe obrazovanie. Jurnal. 2021.19 b.
9. Muzropova G.M “Artistic aspects of Bukhara applied art of the XIX century ‘On the of Bukhara art ceramics’”. Central Asian Studies. 2021. 62.example.
10. Muzropova G.M. “Expression of reality in modern uzbek fine art” . Sceience and innovation. 15.02.2023.
11. Muzropova G.M. “The importance of the traditions of the teacher and disciple in the study of the traditional applied art of Bukhara”. Intent Research Scientific Journal, I February-2023.